

ZAMONAVIY DIDAKTIK YONDASHUVLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI

Ziyadullayeva Malika

Sharisabz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annottasiya: Ushbu maqolada zamonaviy didaktikaning ta'lim jarayoniga ta'siri va ahamiyati, an'anaviy o'qitish usulidan farqli jihatlari va dars jarayonidagi samaradorligi tahlil qilinadi. Yangi didaktik metodlar va innovatsion yondashuv ta'lim sifatini yaxshilashdagi o'rni ko'rsatib o'tiladi. Shunindek, zamonaviy didaktikaning pedagogik jarayondagi roli haqida qisqacha bayon qilinadi.

Kalit so'zlar; didaktika, zamonaviy texnologiyalar, an'anaviy o'qitish, innovatsiya, interaktiv metodlar, pedagogik jarayon va boshqalar.

Abstract: This article discusses the impact and importance of modern didactics on the educational process. Its differences from traditional teaching methods and its effectiveness in the teaching process are analyzed. The role of new didactic methods and innovative approaches in improving the quality of education is indicated. The role of modern didactics in the pedagogical process is also briefly described.

Keywords; didactics, modern technologies, traditional teaching, innovation, interactive methods, pedagogical process, etc.

Kirish

Ma'lumki, hozirgi kunda ta'lim tizimi kunda-kunga o'sib, yangicha yondashuvlar asosida tashkil etilyapti. Zamonaviy qarashlar va fikrlar globallashuv jarayoning ajralmas qismi bo'lib, ta'lim tizimi ham shu bilan birgalikda unga moslashib bormoqda. Ta'lim jarayonida didaktikaning o'rni beqiyos bo'lib, o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaklarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega avvalo, didaktika so'ziga urg'u beradigan bo'lsak, "Didaktika-pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasini ishlab chiqadigan tarmog'idir" yunoncha "didaktikos" so'zidan olingan bo'lib, "o'qitish, o'rganish" degan ma'nolarni anglatadi.

Asosiy qism

Didaktika tushunchasi bu bir necha ming yillardan beri rivojlanib, sodda ko'rinishdan murakkab ko'rinishgacha o'zgarib borayotgan bir jarayondir. Avvalo, X va XI asr misolida ko'rib o'tadigan bo'lsak, Yaqin va O'rta Sharq olimlaridan Kindiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom kabi qomusiy olimlar didaktikaga ilmiy asos slogan. Yevropada Amos Komenskiy, shvetsariyalik pedagog I.G. Pestalossi, nemis pedagogi A. Disterveglar Yevropada didaktikaning rivojlanishiga va o'z o'rnini topishiga katta hissa qo'shganlar. O'rta Sharq olimlari Kindiy, Xorazmiy, Beruniy va Tusiy kabi olimlar didaktik qarashlarida asosiy o'rganadigan jihati bu - predmetning qiyofasi inson ongida mavhumlashuvi jarayonida mana shu predmetning mohiyati va o'ziga xosligini tushunish sodir bo'lishi hamda shakllanishiga e'tibor berganlar. Qisqacha qilib aytadigan

bo'lsak, bilish jarayonlari va uning tarkib topish bosqichlari, bilish va amaliy faoliyat o'rtasidagi munosabat va tafovutlarga qiziqqanlar va shundan xulosa chiqarganlar.

Al-Xorazmiy shaxsning uzluksiz kamol topishi nazariyasini rivojlantirish va deduktiv va induktiv tafakkurdagi alohidalik hamda umumiylik birligi prinsipini muayyanlashtirdi.

Kindiy esa, substansiyani barcha ilmiy bilimlarning bosh predmeti sifatida ko'rib chiqqan va miqdor va hissiy sifatni idrok etish zarurligini tasdiqladi.

Farobiy esa, o'qitish metodlarining tasnifini ishlab chiqib, amaliy va nazariy metodlarga ajratganini ko'rishimiz mumkin. Asosiy jihati shundaki, barcha metodlarni o'quvchining hayotiy tajribasiga, mantiqiy tafakkuriga tayangan holda birlashtirganligini guvohi bo'lamiz. Shu o'rinda ta'kidlashim kerakki, hayotiy tajriba orqali sinab ko'rilgan nazariy bilimlar, o'quvchining mantiqiy tafakkurini oshirishga yordam beradi. Farobiy asosan o'quv jarayonini tashkil etishda deduktiv metodni ustun qo'ygan, o'quvchilarga materialni tushuntirish davomida nimalarga alohida e'tibor berish haqida, aniq faktlar va ma'lumotlar orqali o'quvchiga yetkazib berish muhim ekanligini ta'kidlagan.

Ko'rinib turibdiki, O'rta Sharq olimlari, bilish jarayonini izchilligini oshirish didaktik ta'limining asosi, bilish jarayoni fandagi bilim shakllarining mohiyatini ochib beradigan qurol ekanligini ta'kidlashgan.

Keyichalik, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadidlar Markaziy Osiyoda, xususan, o'zbek va boshqa turkiy xalqlarda ma'rifatparvarlik harakatini boshlagan ziyolilar edi. Ular "yangi usul" (jadid) maktablari orqali ta'lim tizimini modernizatsiya qilishni maqsad qilgan edilar.

Ularning asosiy maqsadi:

- Xalqning madaniy va ilmiy darajasini oshirish,
- An'anaviy maktablardan farqli o'laroq, zamonaviy fanlarni o'rgatish,
- O'qitish metodikasini takomillashtirish va pedagogik yondashuvni yangilash.

Jadidlar davriga kelib, o'qitish tizimi, san'at va madaniyat ancha yaxshilanganligini guvohi bo'lamiz. Ular tomonidan sahna ko'rinishlarini yaratilishi, Avloniy tomonidan ochilgan maktablarda o'zi ishlab chiqqan "Birinchi muallim" "Ikkinchi muallim" va ta'lim-tarbiyaviy jihatdan mukammal asari "Turkiy guliston yoxud axloq" asari diqqatga sazovordir. Abdulla Avloniy o'zining barcha tadqiqotlarida ilm muammosini birinchi o'ringa qo'yganligini guvohi bo'lamiz. Alhosil-butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, dunyo va oxiratimiz ilm bilan bog'liqdur deya ta'kidlagan. Shuning uchun o'qimak, bilmak zamonlarni qo'ldan bermay, vujudimizning dushmani bo'lgan jaholatdan qutulmakka jonimiz borucha sa'y qilmagimiz lozimdir " deya uqtirgan.

Zamonaviy didaktikaning hozirgi kundagi ahamiyati haqida gapiradigan bo'lsak, hozirgi kunda o'quv jarayonini samarali va tizimli tashkil etishga xizmat qiladi. U o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga oladi, innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llaydi, shuningdek, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Shu orqali ta'lim sifati oshadi va o'quvchilar zamonaviy hayotga tayyorlanadi.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari

Didaktikaning asosiy kategoriyalari asosan ta'lim jarayoning turli jihatlarini qamrab oladi.

Birinchi kategoriya, o'qitish mazmuni hisoblanadi. O'quv dasturiga qaysi bilimlar o'rgatilishi kerakligini aniqlaydi.

Ikkinchi kategoriya, o'qitish usullari bo'lib, u bilimlarni qanday yetkazish kerakligini o'rganadi.

Uchinchi kategoriya, o'qitish vositalari yan'i ta'limda qo'llanadigan resurslar va texnologiyalar.

To'rtinchi kategoriya, o'quvchilarning faoliyati bo'lib, ularning darsdagi ishtiroki va o'rganish jarayonini tahlil qiladi.

Zamonaviy didaktika bu o'qitishning noan'anaviy usuli bo'lib, respublikamizda 2020-yildan so'ng yanada izchil tarzda amalga oshirilmoqda. Didaktik o'qitishning ilmiyligi nima ekanini asosli ravishda bayon qiladi. Asosan an'anaviy ta'lim va didaktik ta'limning farqli jihatlari va xususiyatlari haqida gaplashadigan bo'lsak,

1. Ta'lim jarayoning tashkil etilishi ya'ni bir xillikdan cheklangan holda zerikarli muhitda emas, yangicha ruh va kayfiyatda ta'lim olish. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida iliq munosabat va erkinlik.

2. O'quvchilarning roli-an'anaviy ta'limda passiv qabul qiluvchi asosan bilimlarni eslab qolishga qaratilgan tizim va darsliklar. Didaktik ta'limda asosan o'z fikrini erkin bayon qilish va asosan amaliyotga yo'naltiradi.

3. Ma'lumotlar asosan an'anaviy ta'limda nazariy bilim va faktlarga asoslanadi. Didaktik ta'limda esa, hayotiy bilimlar, tajribalar va amaliyot bilan bog'lash asosiy ustunlik qiladigan jihati hisoblanadi.

4. Ta'lim maqsadi an'anaviy ta'limda bilim berish va yodlashga asoslangan. Didaktik ta'limda esa, bilim, ko'nikma, kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi.

5. Innovatsion texnologiyalar qo'llanishi asosan an'anaviy ta'limda kamroq, didaktik ta'limning esa asosiy ob'yekti hisoblanadi. Zamonaviy kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish didaktik ta'limni sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Zamonaviy didaktik yondashuvlar ta'lim jarayonini samarali, interaktiv va o'quvchi markazli qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvlar yordamida o'quvchilar bilim va ko'nikmalarni mustaqil egallash, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi. Shu tariqa, zamonaviy didaktik yondashuvlar ta'lim sifatini oshirib, o'quvchilarni zamonaviy hayot va ish faoliyatiga tayyorlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Raxima Mavlyanova Nargiz Raxmakulova. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi innovatsiya va integratsiya.

2. <https://inlibrary.uz/index.php/science-shine/article/view/98849?ysclid=m>

3. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/07/25/NamDU-ARM-11370-Boshlangich_talim_pedagogikasi_
4. https://api.lib.tipi.uz/media/bookFiles/Boshlangich_talim_pedagogikasi_innovatsiya_va_integratsiya_R
5. <https://renessans-edu.uz/files/books/2023-12-18-05-33>.

